

DRAMATURGIYA JANRLARI

Sultonov Dostonbek

O'zDSMI FMF "Dramatik teatr rejissorligi" 4-bosqich

Talabasi sultonovdoston07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Dramaturgiya janrlari" va uning rivojlanishi haqida juda kerakli ma'lumotlar yoritilgan va ushbu maqulani o'qish orqali tanishib olishiz mumkin.

Kalit so'zlar: Dramaturgiya janrlari, yuzaga kelishi, rivojlanish bosqichlari, jahon miqyosida, teatr san'ati.

Dramatik asarlar yaratilishidagi bu kabi vaziyatlar haqida Usmon Azimning "So'ngso'zlar" asarida ham ijobiy munosabat bildiriladi. Usmon Azimning dramatik asarlari xususida so'z yuritir ekanmiz, uning 90-yillardan keyingi ijodida ushbu turdagi asarlarning yetakchi mavqega ega bo'lganligini, dramatik turga mansub xilma-xil janrlarda qalam tebratganligini kuzatishimiz mumkin. Uning "Bir qadam yo'l", "Kunduzsiz kechalar", "Bozor" (1997), "Alpomishning qaytishi" (1998), "Jazava" (2000), "Baxt qushi" (2002), "O'tgan zamon hangomalari" (2003), kabi pyesalar, "Baxtli bo'laylik", "Hujjatlifilm uchun sujet", "Bahodir va Malika" singari radiopyesalar yozganligi, "Alisher Navoiy" kinoqissasi (1990), "Alpomish" kinodostoni (1997), "Sevgi" (1998, shu nomli hikoya asosida) va 2 seriyali "Alpomish" (2000) filmlarining ssenariysiga mualliflik qilganligi ma'lum[2]. Shuningdek, uning "Tong otgan taraflarda" (2013) [3], barcha janriy xususiyatlariga ko'ra fojia janriga to'g'ri keluvchi "Xalil Sulton" kabi asarlarini sanab o'tish mumkin.

Drama (qadimgi yunoncha: drama — „harakat“) — 1) badiiy adabiyotning 3 asosiy turidan biri (epos, lirika bilan bir qatorda). Drama teatrga ham taalluqli. Syujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga bo'linishi, bayonning yo'qligi, personajlar munosabatlarining o'zaro so'zlashuvga asoslanishi D.ning o'ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy (konkret tarixiy va umuminsoniy) muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qaxramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo dialog va monologlarda ifodalanadi. Drama matni ko'rishga (imo-ishora, harakat), shuningdek, eshitishga mo'ljallanadi; u sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi (mizanssenalar qurilishi) imkoniyatlariga ham muvofiq keladi. Drama adabiy asar sifatida aktyor, rejissyor tomonidan sahnada o'z talqinini topadi. Drama tufayli teatr san'ati yuzaga kelgan va u kino san'ati uchun ham asos bo'lgan (qarang Kinodramaturgiya).

Drama janrlari: tragediya, komediya, drama (janr sifatida) va tragikomediyalardir. 2) Dramaturgiya janrlaridan biri. Ma'rifatparvarlik davri (Didro, Lessing)dan boshlab Drama badiiy adabiyotning yetakchi janrlaridan biriga aylangan. Unda insonning ziddiyatli hayoti ifodalanadi. Tarixiy Dramaga fojiaiylik xos. O'zbek dramaturgiyasi 20-

asr boshlarigacha og‘zaki shaklda mavjud edi. 20-asrning 1-yarmida dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi: „Padarkush yoki o‘qimagan bolaning holi“ (Behbudiy), „To‘y“ (Nusratulla Qudratulla va Hoji Mu‘in), „Boy ila xizmatkor“, „Ko‘knor“, „Mazluma xotin“ (Hoji Mu‘in), „Juvonmarg“, „Ahmoq“ (Abdulla Badriy), „Baxtsiz kuyov“ (Abdulla Qodiriy), „Zaharli hayot“, „Ilm hidoyati“ (Hamza), „Pinak“, „Advokatlik osonmi?“ (Avloniy) va b. Bular Drama janri imkoniyatlarini o‘zida to‘la ifodaladi. 20—30-yillarda o‘zbek dramaturgiyasi G‘ulom Zafariy, Fitrat, Cho‘lpon, Ziyoda Said, Sobir Abdulla va b. dramaturglar ijodi tufayli yanada rivojlandi.

40-yillar dramaturgiyasi Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davr vazifalariga muvofiq taraqqiy etdi. Zamonaviy dramatik asarlarda o‘zbek xalqi tarixi, buyuk siymolar ko‘proq yoritildi. H. Olimjon, Izzat Sulton, Uyg‘un, Shayxzoda kabilar insonparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan „Muqanna“, „Jaloliddin“, „Alisher Navoiy“, „Mirzo Ulug‘bek“ kabi tragediya va dramalar yaratdilar. O‘zbek dramaturgiyasining yetuk namunalari bu janrning eng yaxshi an‘analari asosida yaratildi. D.da davr muammolari va hayotiy ziddiyatlarni ichki ruhiy kechinmalar asosida ifodalash o‘zbek sahna asarlarining yetakchi xususiyatiga aylandi. Abdulla Qahhorning „Shohi so‘zana“, „Tobutdan tovush“, I. Sultonning „Imon“, Uyg‘unning „Parvona“, O‘. Umarbekovning „Qiyomat qarz“ pyesalari shular jumlasidan.

Dramatik tur o‘rta va kichik formalarga bo‘linadi. O‘rta formaga tragediya, komediya, drama janrlari kirsa, kichik forma intermediya, vodyevil, bir pardali pyesa, kichik inetseniurovka, monodrama va diolog janrlarini o‘z ichiga oladi.

O‘rta forma.

1. Tragediya (yunoncha tragos-echki, taka, ode – qo‘shiq; – taka haqida qo‘shiq) – qahramonlarning ruhiy kolliziyasiga asoslanadigan, g‘oyatda jo‘shqin, ehtirosli, ta’sirli va oqibati fojia bilan tugaydigan dramatik janr. Tragediya murosasiz kurash, o‘tkir ziddiyat, favqulodda keskin konflikt zaminiga quriladi. unda xarakterlar va ehtirosning hayot-mamot kurashi ifodalandi.

Kichik forma.

1. Intermediya (lotincha intermedius – o‘rtada turgan) – dramaturgiyaning kichik formasiga mansub bo‘lib, u p‘esaning asosiy aktlari o‘rtasida o‘ynaladigan kichik sahna asari.

2. Insenirovka – dastlab dramaturgiya shaklida yozilmagan adabiy asarning sahna uchun qayta ishlangan variatnlari.

3. Vodyevil (frantsuzcha vaudyeville) – kelib chiqishi Frantsiya bilan bog‘liq. U engil komediya xarakteridagi p‘esa bo‘lib, undagi dialoglar, dramatik harakatlar qiziqarli intrigalar, kulgili syujetlar asosiga quriladi, muzika, qo‘shiq, raqs bilan aralash holda bo‘ladi. U Rossiyada XIX asrning boshlarida paydo bo‘ldi. Sovet davrida bu janr unchalik shuhrat qozonmadi. 6. Monondrma (grekcha monos - yolg‘iz) – bir aktyor ijrosi uchun mo‘ljallangan dramatik asarlarning bir turi. Monodramaga monolog-p‘esa, dramatik miniatyuralar kiradi. Shuningdek, ikki yoki necha qatnashuvchi shaxslari

bo‘lgan, lekin bitta aktyor tomonidan ijro etiladigan dramatik asarlarni ham monodrama deb yuritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmon Azim. Uyg‘onish azobi: She’rlar va tarixiy dramatik qissa. –T.; Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991 B.11
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Belinskiy V. G., Tanlangan asarlar, T., 1955; Rahmonov M., O‘zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha), T., 1968; Imomov B., Jo‘rayev Q., Hakimova H., O‘zbek dramaturgiyasi tarixi, T., 1995.
4. ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI FANIDAN.Guliston – 2020.U.O‘LJABOYEV., I.SAYMURATOVA ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI FANI BO‘YICHA.